

UO'K(UDC, YDK): 81.44

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI PSIXOLOGIYA LEKSIK BIRLIKLARINING SINTAKTIK MUNOSABATLARI TADQIQI⁸

Raximova Gulchexra Zarifboy qizi

Mustaqil izlanuvchi,

Urganch RANCH texnologiyalar

universiteti o'qituvchisi,

Urganch, O'zbekiston

gulchexra.rahimova6665@gmail.com

[ORCID ID: 0000-0002-0280-8420](https://orcid.org/0000-0002-0280-8420)

ANNOTATSIYA

Muayyan soha leksik birliklarini tadqiq qilish tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Shu borada, bunday leksik birliklarning derivatsiya masalalarini tadqiq etish ham ayniqsa muhim hisoblanadi. Psixologiya sohasi jahon miqyosida va mamlakatimizda ham rivojlanib bormoqda. Har qanday soha rivojlanar ekan, o'sha soha leksik birliklari va terminlari ortib boradi. Bu esa o'z navbatida ularni tartibga solishni taqozo etadi. Maqola terminlarning yasash usullaridan biri bo'lgan sintaktik derivatsiya orqali ingliz va o'zbek tillaridagi psixologiya leksik birliklarini yasashiga qaratilgan. Bunda ingliz va o'zbek tillaridagi psixologiya leksik birliklarini yasashdagi asosiy ikkita modeli: ot+ot va sifat+ot modellari misollar orqali tadqiq etiladi. Ushbu modellar ichiga kiruvchi bog'lanish turlari ham misollar bilan tahlilga tortiladi. Ot+ot modeli uch xil bog'lanishda tahlilga tortilgan bo'lsa, sifat+ot modeli ikki xil bog'lanish usulida tahlilga tortilgan. Misollar orqali chog'ishtirilayotgan tillardagi o'xshashliklar va farqli jihatlar aniqlanadi. Tadqiqotni amalga oshirish uchun komponent tahlil, distributiv tahlil, tipologik va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi psixologiya sohasiga oid leksik birliklarning sintaktik derivatsiyasini chog'ishtirma tadqiq qilishdan iborat. Ular o'rtasidagi o'ziga xos sintaktik munosabatlar aniqlanar ekan, tadqiq qilinayotgan tillardagi leksik birliklar tasniflanishi va tartibga solinishiga katta hissa qo'shiladi.

KALIT SO'ZLAR

Psixologiya, leksik birlik, termin, sintaktik munosabatlar, derivatsiya, birikma leksik birliklar.

Received: September 11 2025

Accepted: October 12, 2025

Available online: November 16, 2025

⁸ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Rahimova G. Ingliz va o'zbek tillaridagi psixologiya leksik birliklarining sintaktik munosabatlarini tadqiqi.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 105-117.

THE STUDY OF SYNTACTIC RELATIONSHIPS OF PSYCHOLOGICAL LEXICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK

Rakhimova Gulchekhra Zarifboy qizi

Independent researcher,

Teacher of Urgench RANCH

University of Technologies,

Urgench, Uzbekistan

gulchekhra.rahimova6665@gmail.com

[ORCID ID: 0000-0002-0280-8420](https://orcid.org/0000-0002-0280-8420)

ABSTRACT

The study of lexical units in a specific field is one of the important issues in linguistics. In this regard, examining the derivation of such lexical units is particularly crucial. The field of psychology is developing both globally and in our country. As any field evolves, its lexical units and terminology expand, which in turn necessitates their systematization. This article focuses on the formation of psychological lexical units in English and Uzbek through syntactic derivation, one of the methods of term formation. Specifically, it examines two main models for creating psychological lexical units in English and Uzbek: noun+noun and adjective+noun models, using examples. The types of connections within these models are also analyzed with examples. The noun+noun model is analyzed in three different connection types, while the adjective+noun model is examined in two different connection methods. Through examples, similarities and differences between the compared languages are identified. The research employs component analysis, distributive analysis, typological analysis, and statistical analysis methods. The main objective of this article is to conduct a comparative study of the syntactic derivation of lexical units related to the field of psychology in English and Uzbek. By determining the specific syntactic relationships between them, this study significantly contributes to the classification and systematization of lexical units in the languages under investigation.

KEY WORDS

Psychology, lexical unit, term, syntactic relationships, derivation, compound lexical units.

ИЗУЧЕНИЕ СИНТАКСИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ИЗ СФЕРЫ ПСИХОЛОГИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Рахимова Гулчехра Зарифбой кизи

независимый исследователь,

преподаватель Ургенчского

университета технологий RANCH,

Ургенч, Узбекистан

gulchehra.rahimova6665@gmail.com

[ORCID ID: 0000-0002-0280-8420](https://orcid.org/0000-0002-0280-8420)

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Исследование лексических единиц определенной научной области является одной из актуальных задач лингвистики. В связи с этим особенно важно изучать вопросы, связанные с образованием таких лексических единиц. Область психологии активно развивается как в нашей стране, так и за рубежом, в мировом масштабе. По мере развития любой научной области увеличивается количество относящихся к ней лексических единиц и терминов, что, в свою очередь, требует их систематизации. Данная статья посвящена изучению образования лексических единиц из области современной психологии в английском и узбекском языках посредством синтаксической деривации, которая является одним из способов создания терминов. При этом на материале конкретных примеров исследуются две основные модели образования лексических единиц сферы психологии в английском и узбекском языках – модели существительное+существительное и прилагательное+существительное. Типы связи, входящие в эти модели, также характеризуются путем анализа примеров. Модель существительное+существительное рассматривается в трех различных типах связи, а модель прилагательное+существительное – в двух. При анализе практического материала выявляются сходства и различия в сопоставляемых языках. Для проведения исследования использовались методы компонентного, дистрибутивного, типологического и статистического анализа. Основная цель данной статьи – сопоставительное исследование синтаксической деривации лексических единиц, относящихся к области психологии, в английском и узбекском языках. Выявление специфических синтаксических отношений между ними вносит значительный вклад в классификацию и упорядочение лексических единиц в исследуемых языках.	Психология, лексическая единица, термин, синтаксические отношения, деривация, сложные лексические единицы.

KIRISH

Mamlakatimizda bugungi kunda ilm va fan-texnikaning turli sohalari rivojlanib bormoqda. Xususan, psixologiyasi sohasi ham shular jumlasidan hisoblanadi. Psixologiya rivojlanishi bilan birga, soha leksik birliklari ham ortib bormoqda. O'zbek tilidagi psixologiya sohasi leksik birliklari boshqa tillardan so'z o'zlashtirish darajasi yuqori ekanligi bilan xarakterlanadi (Эргашева Г.Қ., 2018, 56). Jahon miqyosida ham psixologiya sohasining gullab yashnashi, yangi soha leksik birliklarini ingliz tilida paydo bo'lishiga sababchi bo'lmoqda. Bularning ko'pchiligi o'zlashma sifatida o'zbek tiliga kirib kelayotgan bo'lsa-da, o'zbek tilida ularning muqobillarini berish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki, shu kungacha o'zbek tilidagi psixologiya leksik birliklarining katta qismi rus tilida ta'sirida, ruscha o'zlashmalar bilan boyib kelgan.

Muayyan soha leksik birliklari o'rganilar ekan, nafaqat sodda va bir tarkibli, balki ko'p tarkibli leksik birliklarga ham duch kelamiz. Ularni tartibga solish, tasniflab o'rganish masalasi ham tilshunoslikning muhim masalalaridan biridir. Turli tizimli tillarda psixologiya sohasi doirasida ruhiy holatni ifodalashning og'zaki usullariga quyidagilar kiradi: leksik usullar, frazeologik vositalar, morfologik, grammatik, stilistik, sintaktik, obrazli va ifodali vositalar, nutq intonatsiyasi va boshqalar (Обжорин А.М., 2012, 39). Soha terminlari va leksik birliklari qanchalik tartibga solingan bo'lsa, shunchalik soha mutaxassislari muloqoti samarali tashkil qilinadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi birikma shaklidagi leksik birliklarning sintaktik munosabatlarini tadqiq etish bu borada ancha yordam beradi. Birikma leksik birliklar orasida sintaktik munosabatlar o'rganilar ekan, qaysi turdagi bog'lanish ingliz tili uchun xosligi aniqlanishi bilan bir qatorda, o'zbek tilidagi o'ziga xos sintaktik munosabatlar shakllarini ham aniqlashga imkon yaratiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi psixologiya sohasiga oid leksik birliklarning sintaktik derivatsiyasini chog'ishtirma tadqiq qilishdan iborat. Chunki, chog'ishtirilayotgan tillarda bunday munosabatdagi leksik birliklar anchagina. Ular o'rtasidagi o'ziga xos sintaktik munosabatlar aniqlanar

ekan, tadqiq qilinayotgan tillardagi leksik birliklar tasniflanishi va tartibga solinishiga katta hissa qo'shiladi.

ASOSIY QISM

Barcha tillarda sodda va qo'shma so'zlar mavjud bo'lib, ingliz va o'zbek tillari ham bundan mustasno emas. Bundan tashqari, yana bir jihat ham mavjudki, ushbu tillarda mustaqil ma'noli ikki va undan ortiq so'zlar bir-biri bilan o'zaro grammatik jihatdan bog'lanib, yangi leksik birliklar yasash imkoni ham mavjud hisoblanadi. Ushbu hodisa tushunchalar ifodalanish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi va ma'lum bir sohalar, shu jumladan psixologiya sohasi leksik birliklarini kengayishiga va barqarorlashuviga olib keladi.

Bilamizki, leksik birliklar tilshunoslikda faqat tub, qo'shma va yasama leksemalar vositasi orqali ifodalash imkonsiz. Shunday vaziyatlarda so'z birikmalaridan foydalanish tabiiy jarayon hisoblanadi. Terminologik muammolarni o'rganar ekanmiz, bunday birikma terminlarning tadqiqi ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tilshunoslik nazariyasida qayd etilganidek, umumiste'moldagi ayrim so'zlarning semantik doirasi kengayishi natijasida ular asta-sekin terminologik sistemalarga kirib boradi (Абдуазизов А.А., 2010, 74-75).

Birikma terminlar masala har doim terminologiyaning dolzarb masalalari qatoridan o'rin olib keladi. Bunga sabab, ilmiy va texnikaviy terminologiyada birikma terminlarning salmog'i boshqa turdagi terminlardan ancha ko'p ekanligi bilan izohlanadi (Кубрякова Е.С., 1965, 279).

Birikma terminlarni tadqiqida bag'ishlangan ilmiy ishlar ko'p bo'lishiga qaramasdan, bu masala bugungi kunda ham dolzarb masala kasb etadi. Turli manbalarda mazkur birliklar turlicha talqin qilinish holatlari kuzatiladi. Jumladan, "ko'p komponentli terminlar", "frazologik terminlar", "so'z birikmasi shaklidagi terminlar", "polileksem terminlar", "birikma terminlar", "terminologik komplekslar", "sintaktik usulda yasalgan terminlar" kabi nomlanishlarni uchratishimiz mumkin (Нишонов П., 2009, 26). O.S. Axmedov ham ushbu fikrni ta'kidlagani holda, terminologiya sohasi muammolari ilmiy jihatdan o'rganilar

ekan, birikma terminlarning o'ziga xos o'rnini inkor etib bo'lmasligiga urg'u qaratadi (Ахмедов О.С., 2020, 72).

Jumladan, G.Bejenar fikrlariga to'xtalar ekan, O.S. Axmedov quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi. G. Bejenar birikmali terminlar tayyor qoliplar asosida hosil bo'lishini ko'rsatgan holda, barcha birikma terminlar aslida frazeologik birikmalardir, – deya ta'kidlagan. O.Axmedov ta'kidlashicha, garchi bu fikr, ya'ni birikma terminlarning ayrim komponentlari ko'chma ma'noni o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa-da: **konvert usulida haq to'lash, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, byudjet prognozi, o'suvchi qarz, javobgarlikka tortish**, olim bunday fikrga qo'shilmasligini ta'kidlaydi va buning sababi sifatida birikma terminlarning aksariyat qismi erkin birikma bo'lishini keltirib o'tadi (Ахмедов О.С., 2020, 73). To'g'ri, har bir sohada frazeologizmlar borligini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo, bunday terminlarning erkin birikma shakldagi holatlarini frazeologizm sifatida emas, balki birikma termin sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

O'zbek va ingliz tillaridagi ikki komponentli birikmali psixologiya sohasi leksik birliklarining aksariyati yo **ot+ot** yo **sifat+ot** modeli asosida yasalganiga guvoh bo'ldik. Bundan tashqari harakat nomi bilan ot, sifat, olmosh so'z turkumlari qo'shilishi orqali ham ba'zi leksik birliklar hosil qilinish holatlariga duch keldik. Quyida shunday tarkibli birikmali terminlarni tahlil qilib o'tamiz.

Boshqa turkiy tillardagi singari, o'zbek tilida ham aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlari asosida **ot+ot** tipidagi birikma terminlar yasaladi. Ayrim adabiyotlarda ushbu hodisani izofa deb atalayotganini ham uchratishimiz mumkin. A.Hojiyev "Izofa hodisasi aslida eroniy tillarga xos bo'lib, turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida aniqlovchi va aniqlanmish munosabatidagi so'z birikmalariga nisbatan qo'llaniladi", – deb ta'kidlaydi (Хожиев А., 1989, 166). A. Berdialiyeu va H.Nosirov esa o'zbek tilidagi izofa ifodalanishida qatnashadigan so'z birikmalari komponentlarining tartibi fors-tojik tiliga xos izofa modellari tarkiblari tartibidan farq qilishini aytib o'tishgan. O'zbek tilining agglyutinatuv til ekanligi sababli bu tilga xos izofada ham barcha aniqlovchi guruhlar agglyutinatuv qurilishidagi

tillarning aniqlovchi-aniqlanmish tartibi qonuniyatiga amal qiladi (Бердиалиев А., Носиров Х., 1988, 19).

Birikmali terminlar tarkibidagi soʻzlar oʻzaro birikish usuliga koʻra uch xil aniqlovchili koʻrinishga egadir (Ахмедов О.С., 2020, 73).

1) **I tip bogʻlanish** vositasida yasalgan birikmali terminlar har ikki qismning oʻzaro bogʻliqligi soʻz tartibi va birlashtiruvchi element sifatida intonatsiya bilan belgilanadi. Psixologiya sohasi doirasida bunday leksik birliklar kamchilikni tashkil qiladi. Masalan, oʻzbek tilida: *klaster tahlil, content tahlil, daktil nutq, dispersion tahlil, psixotrop moddalar, abstrakt tushuncha, toʻplanma tushuncha, sensor adaptatsiya* shular jumlasidandir. Ingliz tilida esa: *cluster analysis, content analysis, dactyl speech, dispersion analysis, abstract concept, death drive, depression status, achievement motivation, love neurosis, map projection, intelligence quotient* va h.k.

2) **II tip bogʻlanish** asosida hosil boʻlgan birikma terminlar qaysidir predmet, narsa yoxud voqea-hodisaga qarashlilik hodisasini ifodalaydi. Ushbu turdagi birikmalarning qaratqich komponenti –i yoki –si egalik qoʻshimchasi orqali hosil qilinadi. Qaralmish komponenti esa grammatik qoʻshimchalarsiz holda keladi. Bu xildagi psixologiya sohasiga doir leksik birliklarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *oʻlim instinkti, ona instikti, muhabbat nevrozi, tajovuz ehtiyoji, identiklik ehtiyoji, status ehtiyoji, xarita proyeksiyasi, operator faoliyati, inson omili, musiqa psixologiyasi, kreativlik testi, miya bioritmlari, mushak hissi, jinoyat psixologiyasi, zoopsixologiya metodi, jonivorlar oʻyini, harakat tezligi, teri sezgilari, obraz xotirasi* va shu kabi birikma terminlar.

Ingliz tili psixologiya leksik birliklari tarkibida oʻzbek tilidagi birikma terminlarning qaratqich komponenti –i yoki –si egalik qoʻshimchasi bilan birikkani holda kelish holati uchramaydi. Mazkur qoʻshimchalarning maʼnosi ingliz tilida ifodalanganida talaffuz yordamida kontekstga koʻra taʼminlanishi kuzatiladi. Masalan: *death drive, maternal instinct, love neurosis, need for aggression, need for identity, need for status, map projection, operator activity, human factor, psychology of music, creativity test, brain biorhythms, muscle sense, criminal psychology,*

zoopsychology method, speed of movement, tactile sensations, visual memory va boshqalar.

Quyidagi jummalarga e'tibor bering:

Shunday holat yuzaga kelganki, ko'pchilik odam aybdorlik hissiini juda yaxshi tuyg'u deb hisoblaydi (Синельников В., 2019, 113)– *Such a situation has arisen that many people consider the **feeling** of guilt to be a very good emotion.*

...Seansda, trans holatida turib, u o'z ong ostiga kasallikning sababini aniqlash uchun murojaat qildi (Синельников В., 2019, 70) – *...During the session, while in a trans state, she appealed to her **subconscious** mind to identify the cause of the illness.*

Yuqorida ifodalangan misollardan shunday xulosa kelib chiqadiki, demak II tip qaratqich-qaralmish munosabati asosida shakllangan o'zbek tilidagi bunday psixologiya sohasi birikma terminlari, egalik qo'shimchalari bilan ifodalangani holda modelni to'g'ri ifoda etmoqda. Biroq, ingliz tilidagi bunday birikma terminlarda qaratqich-qaralmish munosabatlari imloda sezilmasligi kuzatiladi, ularni faqat talaffuz asosida va kontekstga qarabgina aniqlash imkoniyati mavjud.

Yana shunday holatlar ham borki, o'zbek tilida II tip bog'lanish asosida shakllanib, ingliz tilidagi muqobillari esa III tip bog'lanish asosida shakllanadigan birikma terminlar ham mavjud. Masalan: *depressiya alomatlari* – *signs of depression*, *shaxsiyat turlari* – *types of personality*, *jamiyat taraqqiyoti* – *progress of society*, *musiqa psixologiyasi* – *psychology of music*, *harakat tezligi* – *speed of movement*, *xulq-atvor motivatsiyasi* – *motivation of behavior*, *iroda erkinligi* – *freedom of will* kabilar shular jumlasidan hisoblanadi.

Bunday birikmali terminlarning grammatik xususiyatlari va bunday birikmali leksik birliklarning ingliz tilidan o'zbek tiliga ifoda qilinishidagi shakllari turlicha bo'lib, komponentlar bog'lanish jarayonida so'z yasovchi affikslarning ham ishtiroki kuzatiladi. Jumladan, o'zbek tilida bunday affikslardan *-lik* suffiksi ayrim terminlarning oxirgi komponentida qatnashsa, ba'zilarining birinchi komponentida ham mavjud, biroq har ikkala komponentida mavjudlik holatlari kuzatilmadi. Masalan: *harakat tezligi*, *genlar muhandisligi*, *iroda erkinligi*, *sarosimalik holati*,

ehtimollik hukmi, kreativlik testi, yaqinlik ehtiyoji, (shaxsiy) daxlsizlik ehtiyoji, identiklik ehtiyoji, ustunlik ehtiyoji.

Ingliz tilida *–lik* affiksi birikmali terminlar tarkibida ishtirok etib, asosan ularning vazifasini *of* va *for* predloglari bajaradi, ba’zida esa ushbu predloglar umuman qatnashmaslik holatlari ham kuzatiladi. Jumladan, ingliz tilida: *speed of movement, genetic engineering, freedom of will, panic state, probable judgement, creativity test, need for intimacy, need for privacy, need for identity, need for dominance* va h.k.

3) III tip bog‘lanish asosida hosil bo‘lgan birikma terminlarning birinchi komponenti o‘zbek tilida *–ning* qo‘shimchasi orqali birikadi. Masalan: *bolalarning tajovuzi, alkogolizmning oqibatlari, alkogolizmning profilaktikasi, diqqatning ko‘lami, diqqatning ko‘chuvchanligi, shaxsning aktivligi, idrokning konstantligi, psixologiyaning Leypsig maktabi* va boshqa shu kabi leksik birliklar shu qatordan o‘rin oladi. O‘zbek tilidagi *–ning* qo‘shimchasining muqobilini ingliz tilida asosan *of* predlogi ta’minlaydi. Masalan: *effects of alcoholism, prevention of alcoholism, consequences of depression, Leipzig school of psychology, span of attention, shift of attention* va h.k.

Misol: *Ma’lum bo‘ldiki, bu qo‘rquvlarning paydo bo‘lishida ota-onasining bevosita aloqasi bor ekan* (Синельников В., 2019, 113). – *It turned out that his parents were directly involved in the emergence of these fears.*

Ingliz tilida *of* predlogidan tashqari *’s* ham o‘zbek tilidagi III tip bog‘lanish modelini shakllantirishda ishtirok etadi. Jumladan: *bolalarning tajovuzi – children’s aggression, ayollarning tajovuzi – women’s aggression, erkaklarning tajovuzi – men’s aggression* kabilar shular jumlasidan.

Misol: *Shu bilan u ong osti darajada u bilan yashayotgan ayolga yetishmaydigan narsalarni chetdan qidirishga yo‘l ochib beradi. Erkakning o‘ziga munosabati muhabbat uchburchagini shakllantiradi* (Синельников В., 2019, 123) – *In doing so, he subconsciously paves the way for the woman he lives with to seek what she lack from outside. The man’s attitude toward himself forms a love triangle.*

Yuqoridagi misollardan ayon bo‘ladiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi psixologiya sohasi leksik birliklari orasidagi qaratqich-qaralmish munosabatlari har xil bo‘lib, birikma terminlar tarkibida bu munosabatning o‘ziga xos o‘rni mavjudligi kuzatiladi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilida sifat+ot modeli ham birikma terminlar yasashda o‘zining salmoqli o‘rniga ega. Ushbu modeldagi birikma terminlarning aniqlovchi komponenti aniqlanmish komponentining belgisi, xossasi, xususiyati kabi ma’nolarni ifodalashda xizmat qiladi. Bu shakldagi birikma terminlarni lingvistik jihatdan ikki turga ajratsa bo‘ladi:

- 1) aniqlovchi qismi asliy sifatli birikma terminlar;
- 2) aniqlovchi qismi nisbiy sifatli birikma terminlar.

Birinchi tur, ya’ni **asliy sifat+ot** modeli asosida hosil bo‘lgan birikma terminlar psixologiya sohasi doirasida uchraydi. Bunday birikmalarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: *chuqur tahlil, sun’iy nevroz, psixik holat, ijtimoiy adaptatsiya, etnik konflikt, ijtimoiy hissiyot, qat’iy ishonch, yuqori faollik, matematik qobiliyat, organik sezgi, yolg‘on hukm, yakka hukm, faol xayol, moddiy ehtiyojlar, yakka tushuncha* va shu kabi boshqalar. Shunisi e’tiborga molikki, psixologiya sohasi doirasida bu model asosida shakllangan leksik birliklarning (80 tadan ortiq) sifat tarkibida asosan o‘zlashma sifatlar qatnashishi kuzatildi: *avtoritar tafakkur, autistic tafakkur, estetik hislar, polilogik nutq, operativ xotira, retrograd amneziya, introseptiv sezgi, kinestetik harakat, gumanistik psixologiya, etnik stereotiplar, kosmik psixologiya, korrelyatsion tahlil, izometrik ko‘rinish, instiktiv turtki* va boshqalar.

Ingliz tilida ushbu usulda hosil bo‘lgan leksik birliklar o‘zbek tilidagidek salmoqli emas: *mental health, sweet fantasy, oral speech, stable mood, strong conviction, space psychology, component analysis* kabilar.

O‘zbek tilida nisbiy sifat+ot modeli asosida yasalgan leksik birliklarning salmog‘i asliy sifatli modelnikidan biroz kamroq (50 dan ortiq). Mazkur modeldagi leksik birliklarning aniqlovchi komponenti turli xil sifat yasovchi qo‘shimchalar

bilan ifodalanishini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bunday affikslardan asosiylari quyidagilar: *-iy, -kor, -siz, -li* va boshqalar. Ushbu affikslar vositasida yasalgan leksik birliklarga quyidagilarni misol qilib keltiramiz: *mantiqiy tahlil, shaxsiy fazilatlar, markaziy proyeksiya, aqliy rivojlanish, kasbiy konsultatsiya, jinsiy rollar, amaliy muomala, fazoviy tafakkur, umumiy tushuncha, tezkor xotira, passiv tajovuzkor xatti-harakat, tajovuzkor narsisizm, adovatli ziddiyat, bosimli stress, shartli hukm, tovushli nutq, shartli refleks, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz xayol, shartsiz refleks, tovushsiz nutq, ongsiz omillar, nazoratsiz mastlik, irqalararo tajovuz, ayiruvchi hukm, yozma nutq, yondosh vaziyatlar* va boshqalar. Ingliz tilida bunday model asosida shakllangan birikmalarning soni o'zbek tilidagi shunday modeldagi birikmalarnikidan ancha ko'proq. Jumladan: *aggressive narcissism, expressive speech, intuitive thinking, disjunctive judgement, interracial aggression, logical analysis, instinctual drive, personal traits, spiritual needs, statistical criteria, pedagogical ability, practical communication, emotional tone, suppressed mood, conditioned reflex, humanistic psychology, monologic speech, realistic thinking, autogenic training, working memory, voluntary attention, involuntary imagination* va boshqalar. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turganidek, ingliz tilida ham bir qancha affikslar aniqlovchi qism yasashda ishtirok etib, ular orasida ayniqsa *-al* suffiksi faolligi kuzatildi.

Shuni qayd etish joizki, o'zbek va ingliz tili psixologiya sohasi leksik birliklari tarkibining aniqlovchili birikmali terminlarida sifat yasovchi qo'shimchalar ko'p qatnashib, ayrim sifat yasovchi affikslar sermahsulligi bilan ajralib tursa, ayrimlari esa nisbatan kamroq qatnashadi.

Yuqorida batafsil tahlil qilganimiz, ya'ni **ot+ot** va **sifat+ot** modellari psixologiya leksik birliklarini shakllanishida asosiy o'rin tutsa-da, o'zbek tilida kam sonli lekin soha leksik birliklarini yasashda qatnashuvchi quyidagi modellar ham mavjud. Jumladan, **harakat nomi+ot modeli**: *tirik qolish instikti, yutuqqa erishish motivatsiyasi, bilishga ehtiyoj, sezish pog'onasi, eshitish sezgisi, ko'rish sezgisi*; **ot+harakat nomi modeli**: *ko'nikmalar rivojlanishi, xotirani yo'qotish,*

kasbdan qoniqish, ko‘zlarning yarqirashi; sifat+harakat nomi modeli: proaktiv tormozlanish, ijtimoiy xohish, kasbiy tanlash; olmosh+harakat nomi modeli: o‘zidan mag‘rurlanish; son+ot modeli: oltinchi sezgi.

XULOSA

Psixologiya leksik birliklari orasida bunday ko‘p komponentli birikmalar sonining ortishi bugungi kundagi psixologiya va ijtimoiy soha yutuqlari natijasi o‘laroq sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillardagi psixologik treninglar ortishi, sohaga doir chet tillaridagi adabiyotlar o‘zbek tiliga tarjima qilinayotgani tufayli, bir qator birikma leksik birliklar vujudga kelmoqda. Psixologiya sohasida birikmali leksik birliklarning amaliy ahamiyati ularning miqdori kamligi yoki ko‘p ekanligi bilan belgilanmaydi. Ular soha doirasidagi tushunchalarni to‘g‘ri, aniq va tushunarli qilib yetkazishda o‘ziga xos afzalliklarga ega. Biroq, bunday leksik birliklarning soha doirasida mavjudligi o‘z navbatida ularni tartibga solishni va ixchamlashtirishni talab qilib, chog‘ishtirilayotgan tillarda bunday birikma leksik birliklarni tarjima qilish jarayonida so‘zlar miqdori oshib ketishiga sababchi bo‘ladi, og‘zaki nutqda esa noqulaylik keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш. – Т.: Шарк, 2010. – В. 74-75.
2. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Монография. – Т.: 2020. – В. 72.
3. Бердиалиев А., Носиров Х. Ўзбек тили изофали конструкцияларининг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 1988, №3. – В. 19.
4. Кубрякова Е.С. Что такое словообразование? – М.:1965. – 279 с.
5. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол.фанлари номзоди...дис. автореф. Т.: 2009. – 26 б.

6. Обжорин А.М. Структурные и семантические свойства процессуальных фразеологизмов со значением психического состояния человека в русском и английском языках. Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск.: 2012 г. – 228 с.
7. Синельников В. Дардингни сев. – Т.: Наврўз, 2019. – 113 б.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Т.: 1989. – 166 б.
9. Эргашева Г.Қ. Рус ва ўзбек тилларида психология терминларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри дисс. – Т.: 2018. – 56 б.

REFERENCES

1. Abduazizov A.A. (2010). Introduction to the theory of linguistics. Sharq.
2. Akhmedov O.S. (2020). Linguistic analysis and translation problems of tax and customs terms in English and Uzbek languages. Monograph.
3. Berdialiev A., Nosirov H. (1988). Some issues of redundant constructions of the Uzbek language // Uzbek language and literature.
4. Kubryakova E.S. (1965). What is word formation?
5. Nishonov P. (2009). Comparative and typological study of the legal terminology of the French and Uzbek languages. Candidate of Philological Sciences...diss. author's abstract.
6. Obzhorin A.M. (2012). Structural and semantic properties of procedural phraseological units with the meaning of a person's mental state in the Russian and English languages. Diss. ... Cand. Philological Sciences. Chelyabinsk.
7. Sinelnikov V. (2019). Love your pain. Tashkent, Navroz.
8. Hojiev A. (1989). Uzbek language word formation.
9. Ergasheva G.Q. (2018). Lexical-semantic features of psychology terms in Russian and Uzbek languages: Philol. science. PhD. diss.